

CHIG‘ATOY ULUSI DAVRIDA XORAZM

Rahimova Zeboxon O‘ktam qizi*Urganch davlat universiteti Tarix ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi*Email: rahimovazeboxon04@gmail.com

Orcid.org/0009-0001-3014-7105

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Xorazmning Chig‘atoy ulusi davlati tarkibidagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy ahvoli, aholisi haqidagi manbalar tahlil qilinadi va bu borada xulosalar beriladi.*

Abstract. *This article analyzes the sources about the socio-economic, political situation, population of Khorezm within the state of Chigatoy ulusi and gives conclusions on this matter.*

Абстрактный. *В данной статье будут проанализированы источники о социально-экономическом, политическом положении, населении в составе государства чигатайского улуса Хорезма и даны выводы по этому вопросу.*

Kalit so‘zlar. *Chingizxon, Chig‘atoy ulusi, Ulus, Jayhun, Urganch, Mahmud Yalavoch, O‘qtoy, dorug‘achi, tavg‘ach.*

Keywords: *Genghis Khan, Chikhatoy ulusi, Ulus, Jayhun, Urganch, Mahmud Yalavoch, Oktoy, dorugachi, tawghach.*

Ключевые слова. *Чингисхан, Чигатайский Улус, Улус, Джайхун, Ургенч, Махмуд Ялавач, Огтай, доругачи, Тавгач.*

KIRISH.

Chingizxon tiriklik vaqtidayoq o‘z o‘g‘illariga mulklarini ulus qilib bo‘lib berishni boshlagan edi. 1207-yildayoq katta o‘g‘liga Selenga daryosidan Irtishgacha bo‘lgan yerlar mulk etib berilgan edi. Chingizxon o‘limidan oldin (1225-yil avgust) esa boshqa o‘g‘illariga ham turli zabt etilgan yerlarni ulus etib bo‘lib berdi. Janubiy Sibirdan Xorazm va Darbandgacha bo‘lgan yerlar Jo‘jiga, Oltoy tog‘larining janubiy sarhadlaridan to Amudaryo va Sindgacha bo‘lgan yerlar ikkinchi o‘g‘il Chig‘atoyga, Xitoy va Mo‘g‘uliston voris bo‘lgan uchinchi o‘g‘il O‘qtoyga. Eron va Xuroson Tuliga ulus tarzida bo‘lib berildi [1].

Mo‘g‘ulcha “ulus”-viloyat. Chig‘atoy va uning o‘g‘illari davlati. Taxt otadan o‘g‘ilga o‘tgan. Chingizxon o‘limidan oldin Mo‘g‘ulistondan tashqari g‘arbiy hududlarni bosib olgach o‘g‘illariga ajratar ekan Turkiston ikkinchi o‘g‘li Chig‘atoyning ulushiga tushdi. U o‘z chegarasida sharqda Beshbaliq hududini kirita boshlaydi. G‘arbda Jayhun (Amudaryo) daryosigacha cho‘zilgan. Chig‘atoyni qarorgohi Ili havzasi va Yettisuv hududidagi Qayaliq

shahri yaqinida bo‘lgani uchun shimoliy chegara Ili va Yettisuvgacha ekanligini bilishimiz mumkin. Bu viloyat xonlik poytaxti hisoblanadi. Jayhun daryosi chegara bo‘lgani uchun janubiy chegara Xurosonni chetlab o‘tgan. Biroq Sharafiddin Ali Yazdiyning aytishicha Jayhun daryosi boshida joylashgan Balx, Badaxshon, G‘azna hududlari ham Chig‘atoy ulusi hududiga kirgan. Urganch shahri va Xorazmning asosiy qismi ham Jo‘ji Ulusiga tegishli ekanligini ham bilamiz [7].

Mog‘ullar istilosidan so‘ng Markaziy Osiyo hududi Jo‘ji va Chig‘atoyxon ulusi tarkibiga kirgan. Ular o‘zlari mustaqil ulus sifatida faoliyat olib borgan bo‘lsalarda umumiy mog‘ullar imperiyasidagi qonuniyatlarga bo‘ysunganlar. Movarounnahrning uchdan ikki qismi Baroqxon qo‘liga o‘tgan, bo‘lsada Chig‘atoyxon ulusi Ma’sud Yalavoch zimmasiga yuklangan edi [4].

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Mo‘g‘ullar va temuriylar davri Xorazm shaharlari to‘g‘risida Xiva xoni Abulg‘ozixonning XVII asrda yozilgan “Shajarayi turk” asarida ham ma’lumotlar mavjud bo‘lib, unda Mizdahqon, Xiva, Hazorasp, Vazir, Bo‘ldumsoz, Tirsak va Qumkend kabi shaharlari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, Shayx al-Birzaliy, an-Nuviyriy, Ibn Xaldun kabi arab-fors va temuriylar davrining Nizomiddin Shomiy, Sharofiddin Ali Yazdiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Hofizi Abro‘, Xondamir kabi mualliflar asarlarida ham XIV-XV asrlar Xorazm savdo shaharlari va ularning xo‘jalik hayoti haqida ma’lumotlar uchraydi. Ammo yuqoridagi asarlar kabi bu asarlarda ham jiddiy xatolar mavjud bo‘lib, ulardan ham ehtiyotkorlik bilan foydalanish lozimligini ta’kidlash kerak. Xorazm savdo shaharlarining geografik holati to‘g‘risida XIV-XV asrlarda tuzilgan Yevropa xaritalari ham ma’lumot beradi. 1333 yilda Xorazmga arab sayyohi Ibn Battuta kelgan. Uning “Tuhfat an-nuzzar fi g‘aroyib al-amsar va ajoyib al-afsar” (“G‘aroyib shaharlar va ajoyib safarlar tomoshasi haqida tuhfa”) asarida Xorazm savdo shaharlari to‘g‘risida ba’zi ma’lumotlar uchraydi [2].

TAHLIL VA NATIJALAR.

Chingizxon istilolari Xorazmda o‘n yetti yil davom etib, uni butunlay xarobazorga aylantirdi. Urganch, Kat, Xiva shaharlari bilan bir qatorda yuzlab viloyatlar, tuman-shaharlar va qishloqlar kulturelarga aylandi. Mo‘g‘ullar hayvon qiyofasiga kirib, insoniylikka zid bo‘lgan barcha qilmishlarini namoyish qildilar. Hozirgi Qo‘shko‘pir tumani hududlarida ham hayot-mamot janglari bo‘lib, Go‘zpushgan, Tuproq qal’a, Ko‘na qal’a va G‘ozovot kabi qo‘rg‘on shaharlar kunpaya-kun (tekislangan) qilindi. Ko‘nazey qal’asi yonida mo‘g‘ullar bilan bo‘lgan og‘ir janglardan keyin dunyoga kelgan “Kallalik” qabristoni ana shu sharmandali vahshiylikning qonli izlaridir. Chingizxon avlodlari Xorazmda XIII asr oxirlarigacha hukmronlik qildilar. Xorazm XIV asrning 70-yillaridan to XVI asrgacha (130 yilga yaqin) Temuriylar hukmronligi ostida bo‘ldi [3].

Mo‘tabar tarix kitoblarida zikr qilinishicha, Xorazm fatx qilingandan so‘ng Sohibqironi a‘zam Chingizxonni muazzamning amriga muvofiq Jo‘jixonga Xorazm viloyati va Dashti Qipchoqni to Qiyoliq sarhadidan Soqsin, Jarar, Bulg‘or, Alon, Boshqird. O‘rus chegarasigacha va qayerdagi totor otlarining tuyog‘i yetsa, o‘sha yergacha berilgan edi. U mazkur diyorda xonlik taxti uzra qaror topgan edi [5].

Mo‘g‘ullar istilosidan keyingi Movarounnahr va Xorazmdagi hayotni so‘z bilan ifodalash g‘oyatda og‘ir. O‘lkaning gullab turgan shahar va qishloqlari bamisoli kultepaga aylanadi, hayot izdan chiqadi, bir vaqtlar aholi gavjum bo‘lgan vohalar bo‘m-bo‘sh bo‘lib qoladi. Hali Chingizxon hayotligi chog‘idayoq o‘zi bosib olgan hududlarni farzandlari o‘rtasida taqsimlab beradi. To‘ngich o‘g‘li Jo‘jiga Janubiy Sibir, Dashti Qipchoq, Itil (Volga) bo‘yi, Shimoliy Xorazm va Darbandgacha bo‘lgan yerlar tegadi. Jo‘ji vafotidan so‘ng bu yerlar uning o‘g‘li Botuxonga o‘tadi. Ikkinchi o‘g‘il Chig‘atoyxonga Sharqiy Turkiston, Yettisuv, Movarounnahr, Xorazmning janubiy (markazi Qiyot shahri) hududlari, shuningdek Balx, Badaxshon, Qobul, G‘azna va Sind daryosigacha bo‘lgan yerlar beriladi. Uchinchi o‘g‘il O‘qtoygacha Chingizxon o‘zining kindik qoni tomgan vatani Mo‘g‘ulistonni va Xitoyni hadya qiladi. Kenja o‘g‘li Tuliga esa Xuroson bilan Eron tegadi. Chingizxon lashkarlarni ham farzandlari o‘rtasida taqsimlab beradi. Ana shu tariqa mo‘g‘ullar zabt etgan bepoyon hududlarni uluslarga bo‘lib, udel asosida boshqara boshlaydilar. Uluslar markaziy davlatga-xonlar xoni- “xon” yoki “hoqon”ga bo‘ysunar edi. Uluslar hokimi esa “xon” deb atalgan. Chingizxon vafotidan so‘ng xonlar xoni O‘qtoy bo‘lgan. Ulug‘ xonning poytaxti Qoraqurum shahri edi. Mo‘g‘ul bosqini O‘rta Osiyoda mavjud bo‘lgan ijtimoiy tuzumni o‘zgartira olmagan bo‘lsa-da, mamlakatdagi turli sinflar hayotida turlicha namoyon bo‘ldi. Ruhoniylar, savdogarlar va yirik yer egalari ko‘p o‘tmay mo‘g‘ul istilochilarining tayanchiga aylandilar. Muarrix Rashiduddinining ma‘lumot berishicha, mo‘g‘ul xonlari va shahzodalari yirik yer egalari va savdogarlarga -mahalliy aholidan soliqlar yig‘ishlariga asoslanib, saxiylik bilan qimmatbaho hadyalar ulashganlar. Ammo, shaharlarda ham, qishloqlarda ham mehnatkashlarning ahvoli nihoyatda og‘ir edi. Dehqonlar va hunarmandlar ishlagan yerlaridan davlatga to‘laydigan yillik soliq-xirojdan tashqari yana ko‘plab soliqlar to‘lashlari kerak edi. Chig‘atoy ulusida yer solig‘i o‘ndan bir hajmda belgilangan. Oliy mansabdorlar soliq to‘lamaganlar. Gap shundaki, yirik mulkdorlar, savdogarlar, islom peshvolari mo‘g‘ullar bilan yaqinlashib, katta imtiyozlarni qo‘lga kiritgan, har xil yengilliklar olgan edilar. Soliq turlaridan yana biri qopchur edi. U chorvador xo‘jaliklardan olingan. Chorvadorlardan yana shulen solig‘i olingan. Bunda har suruvdan bir qo‘y va qimiz uchun har ming bosh otdan bir biya undirilgan. Yana bir soliq targ‘u deb atalgan. U hunarmand, savdogarlardan olingan. Targ‘u ishlab chiqarilgan va sotilgan molning o‘ttizdan bir ulushi hajmda olingan. Yana mahalliy xalq tuz solig‘i, jon

yoki kumush solig‘i to‘lagan. Ma’lumki, mo‘g‘ul xonlari noiblarga barot (ijara yorlig‘i), payza berganlar, noiblar soliq yig‘ish paytida rasmiy belgilangan hajmdan ziyodroq undirib olishlari mumkin edi.[6]

XULOSA.

Yuqoridagi tahlil va o‘rganishlar natijasida shunday quyidagi xulosalar berilishi mumkin:

Chingizxon vafotidan so‘ng Movarounnahr va Xorazmning bir qismi Chig‘atoy ulusi tarkibiga kirganligi manbalar asosida tasdiqlandi. Chig‘atoy ulusi davrida Xorazmda mahalliy aholi va mo‘g‘ullar o‘rtasida aloqalar kuchayib, keyinchalik mo‘g‘ullar orasida o‘troqlashuv jarayoni boshlanadi. Xorazmda chig‘atoy tili keng tarqaladi. Chig‘atoy turkchasi Xorazm turk tilining davomi bo‘lgani uchun Xorazm turk tili XV asrga borib taqaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. A.Sagdullayev. O‘zbekiston tarixi I qism / Toshkent “Donishmand ziyosi” 2021 yil/536-bet/
2. <http://xorazmiy.uz/oz/pages/view/345>
3. <http://khorezmiy.uz/oz/pages/view/132>
4. Imamnazarov Qahramon Utkurovich Chig‘atoy ulusi davrida Markaziy Osiyodagi etnik vaziyat. <https://doi.org/10.24412/2181-1784-2023-21-451-453>
5. M.Ulug‘bek “To‘rt ulus tarixi”/Toshkent Cho‘lpon nashriyoti/1994 /135-bet
6. Nurqulova Tahsina “Chig‘atoy ulusi va uning boshqaruv huquqi asoslari” O‘z MU Tarix fakulteti, 2-bosqich talabasi <https://doi.org/10.5281/zenodo.774328>
- 7.Prof.Dr.Mustafo Kafali.Çağatay Hanlığı. Berikan elektronik basimyayimsan.ve TIC. LTD. STI.Tel: 0312.232 6218/19 •Fax: 0312.232 1499 GMKBulvan 80/1. Maltepe-ANKARA/33-34-sayfalar.